10-ILOVA
«Tenge Bank» ATBda jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'yicha
Universal shartnomaga

OMMAVIY OFERTA
TENGE24 MOBIL ILOVASI ORQALI TEMIR YO'L CHIPTALARINI BRON QILISH, RASMIYLASHTIRISH, TO'LASH VA QAYTARISH UCHUN TENGE TRAVEL SERVISIDAN FOYDALANISH TO'G'RISIDA

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Tenge24 mobil ilovasi orqali temir yo'l chiptalarini bron qilish, rasmiylashtirish, to'lash va qaytarish uchun Tenge Travel servisidan foydalanish shartlari to'g'risidagi mazkur Ommaviy oferta (keyingi o'rinlarda - Oferta) «Tenge Bank» ATBda jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'yicha Universal shartnomaning (keyingi o'rinlarda - Universal shartnoma) ajralmas qismi hisoblanadi.

1.2. Mazkur Oferta «Tenge Bank» aksiyadorlik tijorat bankining (keyingi o'rinlarda - Bank) Bank mijozlari va Tenge24 mobil ilovasi foydalanuvchilari bo'lgan jismoniy shaxslarga Tenge Travel servisidan mazkur Ofertada nazarda tutilgan shartlarda foydalanish bo'yicha rasmiy ommaviy taklifidir.

1.3. Oferta Tenge Travel servisidan foydalanish bilan bog'liq holda Bank va Mijoz o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni, jumladan Chiptalarni qidirish, tanlash, bron qilish, rasmiylashtirish, to'lash, olish, almashtirish va qaytarish, shuningdek ularni sotib olish va ulardan foydalanish bilan bog'liq boshqa mavjud operatsiyalarni amalga oshirishni tartibga soladi.

1.4. Mazkur Oferta bilan tartibga solinmagan qismda Universal shartnoma shartlari, Bankning amaldagi Tariflari, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, tegishli Tashuvchining qoidalari va tariflari, Provayder shartlari, shuningdek Mijozga ma'lum qilingan boshqa qo'llaniladigan hujjatlar qo'llaniladi.

1.5. Tashish shartnomasi bevosita Yo'lovchi va tegishli Tashuvchi o'rtasida tuziladi. Bank Tashuvchi hisoblanmaydi va yo'lovchilarni bevosita tashishni amalga oshirmaydi.

1.6. Tenge Travel doirasida Bank Mijozga servisning tegishli funksional imkoniyatlaridan foydalanish imkonini beradi, Buyurtmani shakllantirish va rasmiylashtirish uchun zarur axborotni qabul qiladi va uzatadi, o'z majburiyatlari doirasida hisob-kitoblarni tashkil etadi, Provayder va/yoki Tashuvchi tomonidan shakllantirilgan elektron Chiptani Mijozga yetkazishni ta'minlaydi, murojaatlarni qabul qiladi va ko'rib chiqadi, shuningdek servisning texnik imkoniyatlari va Bank vakolatlari doirasida boshqa harakatlarni amalga oshiradi.

1.7. Tenge Travel faoliyatini ta'minlash uchun Bank Chiptalarni bron qilish, rasmiylashtirish, to'lash, sotib olish, almashtirish va qaytarish, hisob-kitoblarni amalga oshirish, texnik qo'llab-quvvatlash hamda boshqa bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ishtirok etuvchi Provayder va boshqa uchinchi shaxslarni jalb etishga haqli.

1.8. Tenge Travel servisidan foydalanish Mijozning Tenge24da amaldagi hisob yozuvi mavjud bo'lishi, Bank tomonidan nazarda tutilgan identifikatsiya tartib-taomillaridan o'tishi va Universal shartnoma hamda mazkur Ofertada belgilangan boshqa talablarni bajarishi sharti bilan mumkin.

1.9. Buyurtmani tasdiqlashdan oldin Mijozga tegishli operatsiyaning muhim shartlari, jumladan safar parametrlari, Chipta qiymati, qo'llaniladigan tariflar, yig'imlar, komissiyalar va boshqa to'lovlar, shuningdek almashtirish va qaytarish shartlari bilan tanishish imkoniyati beriladi.

1.10. Bank marketing aksiyalari, sodiqlik dasturlari va boshqa maxsus takliflarni o'tkazgan taqdirda, ishtirok etish shartlari, chegirmalar, keshbek va/yoki boshqa afzalliklarni taqdim etish miqdori va tartibi, cheklovlar, o'tkazish muddatlari hamda boshqa shartlar tegishli Aksiya yoki dastur bo'yicha alohida Qoidalarda belgilanadi.

1.11. Tegishli Aksiya Qoidalari Bankning www.tengebank.uz rasmiy saytida joylashtiriladi va qo'shimcha ravishda Tenge24 mobil ilovasida hamda Bankning boshqa axborot kanallarida joylashtirilishi mumkin.

1.12. Mijozning tegishli Aksiya doirasida chegirma, imtiyoz yoki boshqa afzallik qo'llanilgan holda operatsiyani amalga oshirishi uning mazkur Aksiya shartlari bilan tanishganini va uning Qoidalariga roziligini anglatadi.

II. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

2.1. Mazkur Oferta maqsadlari uchun quyidagi atamalardan foydalaniladi:

Bank / Tenge Bank - «Tenge Bank» aksiyadorlik tijorat banki.

Mijoz - O'zbekiston Respublikasi rezidenti yoki norezidenti bo'lgan, Universal shartnomaga qo'shilgan, Bank va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartib hamda shartlarda identifikatsiyadan o'tgan va Tenge24 mobil ilovasidan foydalanuvchi jismoniy shaxs.

Tenge24 - «Tenge Bank» ATBning mobil ilovasi bo'lib, u orqali Mijozga bank va boshqa masofaviy servislar taqdim etiladi.

Tenge Travel - Tenge24 mobil ilovasining bo'limi (ilovasi) bo'lib, u orqali Mijozga temir yo'l chiptalarini qidirish, tanlash, bron qilish, rasmiylashtirish, to'lash, olish, almashtirish va qaytarish uchun Travel-servis funksional imkoniyatlaridan foydalanish, shuningdek Chiptalarni sotib olish va ulardan foydalanish bilan bog'liq boshqa mavjud operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyati beriladi.

Travel-servis - Tenge24ga integratsiya qilingan, Chiptalarni qidirish, tanlash, bron qilish, rasmiylashtirish, to'lash, olish, almashtirish va qaytarishda funksional hamda axborot-texnologik o'zaro hamkorlikni, shuningdek boshqa bog'liq xizmatlarni taqdim etishni ta'minlovchi dasturiy-texnologik servis.

Provayder - Bank bilan tegishli shartnoma tuzgan, Travel-servis faoliyatini, temir yo'l chiptalarini bron qilish, rasmiylashtirish va sotish tizimlari bilan texnologik hamda axborot o'zaro hamkorligini ta'minlaydigan, shuningdek Bank bilan tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq boshqa funksiyalarni bajaradigan yuridik shaxs.

Tashuvchi - Yo'lovchini bevosita temir yo'l transportida tashishni amalga oshiradigan hamda qonunchilik doirasida tashish shartlari, tariflar, yo'lovchilar va bagajga qo'yiladigan talablar, Chiptalarni rasmiylashtirish, almashtirish va qaytarish qoidalari, yig'imlar va tashishning boshqa shartlarini belgilaydigan yuridik shaxs.

Yo'lovchi - O'zbekiston Respublikasi rezidenti yoki norezidenti bo'lgan, nomiga Chipta rasmiylashtiriladigan va qonunchilik talablari hamda tegishli Tashuvchi qoidalariga muvofiq tashish xizmatidan foydalanuvchi jismoniy shaxs. Mijoz va Yo'lovchi ayni bir shaxs yoki turli shaxslar bo'lishi mumkin.

Buyurtma - Mijoz tomonidan Tenge Travel orqali shakllantirilgan, bir yoki bir nechta Chiptani bron qilish, rasmiylashtirish va sotib olish bo'yicha so'rov bo'lib, Mijoz tanlagan safar parametrlari va boshqa zarur ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Chipta - Yo'lovchi nomiga rasmiylashtirilgan va tegishli Tashuvchi shartlariga muvofiq uning tashish xizmatidan foydalanish huquqini tasdiqlovchi elektron temir yo'l chiptasi.

Aksept - Mijozning mazkur Ofertada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish orqali uning shartlarini to'liq va so'zsiz qabul qilishi.

Aksiya - Tenge Travel servisidan foydalanish bilan bog'liq, Bank tomonidan tasdiqlangan alohida Qoidalar asosida o'tkaziladigan marketing tadbiri, sodiqlik dasturi, chegirmali yoki boshqa rag'batlantiruvchi kampaniya.

III. SHARTNOMANI TUZISH TARTIBI VA OFERTANI AKSEPT QILISH

3.1. Mazkur Oferta Mijoz tomonidan quyidagi harakatlar majmui amalga oshirilganda aksept qilingan

hisoblanadi:

- mazkur Oferta shartlari bilan tanishish;
- Tenge Travel orqali Buyurtmani shakllantirish;
- Tenge24da nazarda tutilgan funksional imkoniyatlardan foydalangan holda Buyurtmani tasdiqlash;
- tanlangan Buyurtma bo'yicha to'lovni mavjud usulda tasdiqlash.

3.2. Mijozning ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirishi mazkur Oferta shartlarini to'liq va so'zsiz qabul qilganini hamda mazkur Oferta shartlarida shartnoma tuzilganini anglatadi.

3.3. Oferta Aksepti Universal shartnoma, Tenge24 funksional imkoniyatlari va tegishli operatsiyani amalga oshirishning qo'llaniladigan tartibida nazarda tutilgan identifikatsiya, autentifikatsiya va operatsiyalarni tasdiqlash vositalaridan foydalangan holda elektron shaklda amalga oshiriladi.

3.4. Agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqacha nazarda tutilmagan bo'lsa, Oferta Aksepti qog'oz shaklidagi alohida hujjatni imzolashni talab qilmaydi.

3.5. Bank, Provayder va tegishli axborot tizimlarining Mijoz harakatlari, operatsiya amalga oshirilgan vaqt, Buyurtmani shakllantirish va tasdiqlash, to'lovni amalga oshirish hamda Buyurtma doirasidagi boshqa harakatlar to'g'risidagi elektron yozuvlari, agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqacha nazarda tutilmagan bo'lsa, tegishli harakatlar amalga oshirilganining tasdig'i hisoblanadi.

3.6. Muayyan Buyurtmaga nisbatan shartnoma Oferta Aksepti qilingan paytdan boshlab ushbu Buyurtma bilan bog'liq majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar, jumladan hisob-kitoblar yakunlanishi, Chiptani rasmiylashtirish va taqdim etish, zarur bo'lganda uni almashtirish, qaytarish va Mijoz murojaatlarini ko'rib chiqish tugallanguniga qadar amal qiladi.

3.7. Mijozning to'lov bo'yicha majburiyati tegishli to'lov operatsiyasi muvaffaqiyatli yakunlanib, tasdiqlangan summa belgilangan hisob-kitoblar tartibi doirasida hisobga tushganidan so'ng bajarilgan hisoblanadi.

3.8. Mijoz tomonidan Chipta hamda Tashuvchi va/yoki Provayder xizmatlari uchun to'langan pul mablag'lari Bank tomonidan qo'llaniladigan shartnomaviy va hisob-kitob modeliga muvofiq qabul qilinadi va hisobga olinadi. Bankning alohida buyurtma qilingan o'z xizmatlari uchun to'lov tegishli Bank xizmatining haqi hisoblanadi.

3.9. Chipta, Tashuvchi, Provayder va Bankning o'z xizmatlari uchun to'lov Buyurtmaning tegishli tarkibiy qismlari alohida hisobga olinishi hamda hisob-kitob va fiskal hujjatlarda tegishli tarzda aks ettirilishi sharti bilan bitta to'lov operatsiyasi orqali amalga oshirilishi mumkin.

3.10. Mijoz tomonidan avval tasdiqlangan Buyurtma yoki Chipta qiymatini bir tomonlama oshirish yoxud Mijoz bilan oldindan kelishilmagan qo'shimcha xizmat haqini hisoblashga yo'l qo'yilmaydi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

IV. BUYURTMANI SHAKLLANTIRISH VA RASMIYLASHTIRISH TARTIBI

4.1. Chiptani sotib olish uchun Mijoz Tenge Travel orqali mustaqil ravishda:

- yo'nalish va safar sanasini tanlaydi;
- poyezd, vagon, mavjud o'rin va safarning boshqa parametrlarini tanlaydi;
- Yo'lovchining zarur ma'lumotlarini kiritadi;
- Buyurtma qiymati va boshqa parametrlarini tekshiradi;
- Tashuvchining qo'llaniladigan shartlari bilan tanishadi;
- mavjud to'lov usulini tanlaydi;
- Buyurtmani tasdiqlaydi.

4.2. Buyurtmani tasdiqlashdan oldin Mijoz quyidagilarning to'g'riligini mustaqil ravishda tekshirishi shart:

- Yo'lovchining familiyasi, ismi va boshqa ma'lumotlari;
- shaxsni tasdiqlovchi hujjat rekvizitlari;
- yo'nalish;
- safar sanasi va vaqti;

- poyezd, vagon, o'rin va boshqa qo'llaniladigan parametrlar;
- Chiptalar soni;
- Buyurtma qiymati;
- Buyurtmani shakllantirishda ko'rsatilgan boshqa ma'lumotlar.

4.3. Buyurtmani shakllantirishda Mijoz tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligi va to'g'riligi uchun Mijoz javobgar bo'ladi.

4.4. Uchinchi shaxs uchun Chipta sotib olayotganda Mijoz bunday Yo'lovchining shaxsga doir ma'lumotlarini Bank, Provayder, Tashuvchi va tegishli tashishni rasmiylashtirish hamda bajarishda bevosita ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga taqdim etish va uzatish uchun qonuniy asoslar mavjudligini tasdiqlaydi.

4.5. Jadval, mavjud o'rinlar, Chiptalar qiymati, tariflar, tashish shartlari va Buyurtmaning boshqa parametrlari haqidagi axborot Provayder va/yoki tegishli Tashuvchidan olinadigan ma'lumotlar asosida shakllantiriladi.

4.6. Chipta yakuniy rasmiylashtirilguniga qadar mavjud o'rinlar, qiymat, jadval va Buyurtmaning boshqa parametrlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Tashuvchi qoidalari va Chiptalarni bron qilish hamda rasmiylashtirish bo'yicha tegishli tizimlarning texnik shartlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda o'zgarishi mumkin.

4.7. Buyurtma yakuniy rasmiylashtirilguniga qadar uning yakuniy qiymati yoki boshqa muhim shartlari o'zgargan taqdirda Mijozga yangilangan axborot taqdim etiladi. Mijozning qo'shimcha tasdig'isiz oshirilgan summani yechib olishga yo'l qo'yilmaydi.

4.8. To'lov muvaffaqiyatli tasdiqlangandan so'ng Buyurtma haqidagi ma'lumotlar Chiptani shakllantirish uchun Provayderga va/yoki tegishli bron qilish va rasmiylashtirish tizimiga yuboriladi.

4.9. Mijozning to'lov vositasidan pul mablag'lari muvaffaqiyatli yechib olinganining o'zi Chiptaning yakuniy rasmiylashtirilganini tasdiqlamaydi.

4.10. Chipta tegishli bron qilish va/yoki rasmiylashtirish tizimida shakllantirilib, Tenge24 orqali va/yoki boshqa nazarda tutilgan usulda Mijozga taqdim etilgandan so'ng rasmiylashtirilgan hisoblanadi.

4.11. Agar pul mablag'lari yechib olingan, biroq Chipta rasmiylashtirilmagan bo'lsa, Bank operatsiyani tekshiradi va tegishli pul mablag'larini mazkur Oferta hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda qaytarishni tashkil etadi.

4.12. Bank Mijozga Chiptalarni rasmiylashtirish, almashtirish va qaytarish operatsiyalariga ko'maklashish bilan bog'liq alohida qo'shimcha xizmatlarni, agar bunday xizmatlar Bankning amaldagi Tariflarida nazarda tutilgan bo'lsa, ko'rsatishga haqli.

4.13. Har bir Chiptani qaytarishni rasmiylashtirishga ko'maklashish uchun operatsiya amalga oshirilgan sanada amalda bo'lgan Bank Tariflariga, shuningdek Provayder va/yoki Tashuvchining qo'llaniladigan tariflari, yig'imlari va shartlariga muvofiq haq undirilishi mumkin. Tegishli haq, yig'imlar va ushlab qolinadigan summalar miqdori qaytarish operatsiyasi tasdiqlanishidan oldin Mijozga ma'lum qilinadi.

4.14. Alohida haq to'lanadigan xizmat ko'rsatilishi boshlanishidan oldin Mijozga quyidagilar haqida axborot taqdim etiladi:
- xizmatning mazmuni va xususiyati;
- Bank haqining miqdori va undirish tartibi;
- Tashuvchi va/yoki Provayderning qo'llaniladigan yig'imlari va ushlab qolinadigan summalari;
- boshqa qo'llaniladigan to'lovlar;
- agar gap qaytarish operatsiyasi haqida ketsa, Mijozga qaytarilishi lozim bo'lgan pul mablag'larining yakuniy summasi.

4.15. Alohida haq to'lanadigan xizmatni ko'rsatish va tegishli haq miqdori Mijoz tomonidan Tenge24 orqali faol harakat bilan yoki nazarda tutilgan boshqa elektron usulda tasdiqlanadi.

4.16. Mijozning qo'shimcha haq to'lanadigan xizmatni sotib olishga roziligini avtomatik ravishda anglatadigan oldindan belgilangan belgilar qo'llanilmaydi.

4.17. Bank haqi, shuningdek Provayder va/yoki Tashuvchining qo'llaniladigan yig'imlari va ushlab qolinadigan summalarini Mijozga qaytarilishi lozim bo'lgan pul mablag'laridan ushlab qolishga

Mijoz tegishli to'lovlar va qaytariladigan yakuniy summa haqida oldindan xabardor qilinganidan so'ng yo'l qo'yiladi.

4.18. Agar qaytariladigan summa bunday haqni ushlab qolish uchun yetarli bo'lmasa, qo'shimcha pul mablag'larini yechib olishga faqat Mijozning tegishli tasdig'idan so'ng yo'l qo'yiladi.

4.19. Qaytarishni rasmiylashtirishga ko'maklashish uchun haq va Bankning boshqa qo'shimcha xizmatlari uchun haq quyidagi hollarda undirilmaydi:

- Mijozning murojaati yoki e'tirozini qabul qilish va ko'rib chiqish uchun;
- Bank tomonidan yo'l qo'yilgan xatoni tuzatish uchun;
- xato yoki takroran yechib olingan pul mablag'larini qaytarish uchun;
- rasmiylashtirilmagan Chipta qiymatini yoki ko'rsatilmagan xizmat haqini qaytarish uchun;
- qonunchilikka muvofiq Bank qo'shimcha haq olmasdan bajarishi shart bo'lgan harakatlar uchun;
- Tashuvchi tomonidan tashish bekor qilingan yoki tashish shartlari buzilganligi sababli majburiy qaytarish amalga oshirilganda, agar qo'llaniladigan majburiy qoidalarda bunday haq undirilmasdan qaytarish nazarda tutilgan bo'lsa;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida tegishli haqni undirishga yo'l qo'yilmaydigan boshqa hollarda.

4.20. Qiymati Mijoz tomonidan to'langan boshqa xizmat tarkibiga allaqachon kiritilgan harakatlar uchun ham alohida haq undirilmaydi.

4.21. Bankning qaytarishni rasmiylashtirishga ko'maklashish haqi tegishli xizmat amalda ko'rsatilganidan va Provayder va/yoki Tashuvchidan qaytarish rasmiylashtirilgani to'g'risida tasdiq olinganidan so'ng hisoblanadi.

4.22. Agar qaytarish rasmiylashtirilmagan bo'lsa, jumladan Provayder yoki Tashuvchi rad etgan taqdirda, ko'rsatilmagan xizmat uchun haq undirilmaydi, bunday xizmat uchun avval to'langan summa esa Mijozga qaytarilishi lozim.

4.23. Mijozning ayni bir qaytarish bo'yicha takroriy murojaat qilishi o'z-o'zidan haqni takroran undirish uchun asos bo'lmaydi.

V. CHIPTA QIYMATI VA TO'LOV TARTIBI

5.1. To'lovni tasdiqlashdan oldin Mijozga quyidagilar haqida axborot taqdim etiladi:

- Chipta qiymati;
- Tashuvchi va/yoki Provayderning qo'llaniladigan tariflari, yig'imlari va komissiyalari;
- qo'shimcha ravishda tanlangan xizmatlar qiymati;
- agar qo'llanilsa, Bank xizmatlari uchun komissiyalar va haq;
- Aksiyalar doirasida taqdim etiladigan chegirmalar, imtiyozlar yoki boshqa afzalliklar;
- Mijoz tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan Buyurtmaning yakuniy summasi.

5.2. Buyurtma uchun to'lov Mijozga to'lov tasdiqlanishidan oldin ko'rsatilgan yakuniy summa miqdorida amalga oshiriladi.

5.3. Agar qonunchilikda va tegishli operatsiyaning texnik jihatdan mavjud funksional imkoniyatlarida boshqacha nazarda tutilmagan bo'lsa, hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi.

5.4. Buyurtma uchun to'lov operatsiya amalga oshirilayotgan paytda Tenge Travel servisida Mijoz uchun texnik jihatdan mavjud bo'lgan usullardan biri orqali, jumladan quyidagi usullarda amalga oshirilishi mumkin:

- «Tenge Bank» ATB, O'zbekiston Respublikasining boshqa banklari va xorijiy banklar tomonidan emissiya qilingan bank kartalaridan;
- UZCARD, HUMO, Visa, Mastercard, shuningdek Tenge Travel tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan boshqa to'lov tizimlarining milliy va xalqaro bank kartalaridan;
- «Tenge Bank» ATBda ochilgan va Tenge24 orqali tegishli operatsiyani amalga oshirish uchun mavjud bo'lgan Mijozning bank hisobvarag'idan pul mablag'larini yechib olish yo'li bilan;
- texnik imkoniyat mavjud bo'lganda elektron hamyon orqali;

- Tenge Travel orqali mavjud bo'lgan va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa to'lov usuli bilan.

5.5. Mavjud to'lov usullarining aniq ro'yxati Tenge Travel, Tenge24, Bank, Provayder, tegishli to'lov tizimlari va hisob-kitoblarning boshqa ishtirokchilarining texnik imkoniyatlariga qarab belgilanadi hamda Buyurtma tasdiqlanishidan oldin Mijozga ko'rsatiladi.

5.6. Bank kartasi bilan to'lashda operatsiyani amalga oshirish imkoniyati, jumladan emitent-bank shartlari, tegishli to'lov tizimi, qo'llaniladigan autentifikatsiya usuli va tegishli operatsiyaning texnik mavjudligiga bog'liq.

5.7. Mijoz tomonidan tasdiqlangan summadan ortiq pul mablag'larini uning roziligisiz qo'shimcha ravishda yechib olishga yo'l qo'yilmaydi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

5.8. Tenge Travel funksional imkoniyatlaridan foydalanganlik uchun Mijozdan alohida haq undirilmaydi, agar Bankning amaldagi Tariflarida boshqacha to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilmagan va tegishli haq to'g'risidagi axborot operatsiya tasdiqlanishidan oldin Mijozga ma'lum qilinmagan bo'lsa.

5.9. Tashuvchi, Provayder va/yoki Bankning komissiyalari, yig'imlari va boshqa to'lovlari, jumladan Chiptani qaytarishni rasmiylashtirishga ko'maklashish uchun haq, agar bunday haq tegishli tariflarda nazarda tutilgan bo'lsa, tegishli operatsiya tasdiqlanishidan oldin Mijozga ma'lum qilinadi.

5.10. Bankning alohida xizmatlari uchun komissiyalar va haq miqdori Bankning amaldagi Tariflari bilan belgilanadi.

5.11. Provayder va/yoki Tashuvchining tariflari, yig'imlari, komissiyalari, ushlab qolinadigan summalari va boshqa to'lovlari miqdori ularning tegishli qoidalari, tariflari va shartlari bilan belgilanadi.

5.12. Alohida Aksiyalar doirasida Bank to'lov usuliga nisbatan maxsus talablarni belgilashga, jumladan tegishli Aksiya Qoidalariga muvofiq chegirma yoki boshqa afzallikni faqat muayyan bank kartasi, to'lov tizimi, bank hisobvarag'i, elektron hamyon yoki boshqa to'lov vositasidan foydalanganda taqdim etishni nazarda tutishga haqli.

5.13. Bank kartasi orqali to‘lov Tenge24 bilan integratsiyalashgan internet-ekvayring vositasida amalga oshiriladi. Qo‘llab-quvvatlanadigan to‘lov tizimlari ro‘yxati hamda to‘lov operatsiyasini tasdiqlashning mavjud usullari servisning texnik imkoniyatlari va tegishli to‘lov tizimlarining amaldagi qoidalariga muvofiq belgilanadi.

5.14. Bank to‘lov ma’lumotlarining himoya qilinishini va to‘lov operatsiyalarining xavfsiz amalga oshirilishini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga hamda tegishli to‘lov tizimlarining amaldagi qoidalariga muvofiq ta’minlaydi. Mijoz to‘lov vositalaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi hamda PIN-kod, parollar va bir martalik tasdiqlash kodlarini uchinchi shaxslarga oshkor etmasligi shart, tegishli operatsiyani tasdiqlash uchun ularni belgilangan tartibda kiritish hollari bundan mustasno.

5.15. Firibgarlik va ruxsatsiz operatsiyalarning oldini olish maqsadida Bank qonunchilik, Universal shartnoma va ichki nazorat tizimlarida nazarda tutilgan choralarni qo'llashga haqli, jumladan:

- to'lovchini autentifikatsiya qilish;
- operatsiyalar monitoringini amalga oshirish;
- operatsiyalar summasi, soni va chastotasi bo'yicha limitlarni belgilash;
- qo'shimcha tekshiruv o'tkazish;
- shubhali operatsiyani vaqtincha to'xtatib turish;
- qonunchilik va tegishli operatsiya shartlarida yo'l qo'yilgan hollarda operatsiyani amalga oshirishni rad etish.

5.16. Firibgarlik, to'lov vositasidan ruxsatsiz foydalanish yoki to'lovni amalga oshirish bo'yicha qo'llaniladigan qoidalar buzilganligi alomatlari mavjud bo'lganda Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Oferta shartlarida yo'l qo'yilgan doirada operatsiyani to'xtatib turish, uni amalga oshirishni rad etish yoki Buyurtmani bekor qilishga haqli.

5.17. Mijoz to'lov vositasidan qonuniy asoslarda foydalanishi, taqdim etilayotgan to'lov ma'lumotlarining ishonchliligini ta'minlashi va belgilangan xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi shart.

5.18. Pul mablag'larining xato ravishda takroran yechib olinishi yoki ayni bir Buyurtmaning texnik jihatdan takrorlanishi Mijozda tegishli operatsiya uchun qayta to'lash majburiyatini yuzaga keltirmaydi. Bunday holat aniqlanganda Bank tekshiruv o'tkazadi va ortiqcha yechib olingan pul mablag'larini qaytarishni tashkil etadi.

5.19. Tenge Travel doirasidagi operatsiyalar bo'yicha fiskal va boshqa hisob-kitob hujjatlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda va tartibda shakllantiriladi hamda Mijozga taqdim etiladi.

5.20. Buyurtma tarkibida Chipta qiymati, Provayder va/yoki Tashuvchi xizmatlari hamda Bankning o'z xizmatlari mavjud bo'lsa, tegishli summalar qo'llaniladigan shartnomaviy model, tegishli operatsiyaning xususiyati, to'lovlarni tasniflash talablari va qo'llaniladigan soliq rejimini hisobga olgan holda hisob-kitob va fiskal hujjatlarda aks ettiriladi.

5.21. Bankning o'z xizmatlari hamda Chipta va boshqa ishtirokchilar xizmatlari uchun hisob-kitoblar doirasida Bank tomonidan qabul qilinadigan summalar, bunday ajratish qonunchilik va qo'llaniladigan shartnomaviy modelda nazarda tutilgan hollarda, alohida hisobga olinadi va aks ettiriladi.

VI. CHIPTANI OLISH VA UNDAN FOYDALANISH

6.1. Chipta muvaffaqiyatli rasmiylashtirilgandan so'ng Mijozga Tenge Travel orqali va/yoki boshqa mavjud usulda elektron shaklda taqdim etiladi.

6.2. Mijoz rasmiylashtirilgan Chipta ma'lumotlarini uni olgandan so'ng darhol tekshirishi shart.

6.3. Rasmiylashtirilgan Chiptada xato yoki nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda Mijoz zudlik bilan Bankka murojaat qilishi lozim.

6.4. Rasmiylashtirilgan Chiptaga o'zgartirish kiritish imkoniyati va tartibi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, tegishli Tashuvchi qoidalari va Provayder shartlari bilan belgilanadi.

6.5. Mijoz va/yoki Yo'lovchi tegishli Tashuvchining talablariga, jumladan hujjatlar, yetib kelish vaqti, poyezdga chiqish, bagaj va tashishning boshqa shartlariga mustaqil ravishda rioya qilishi shart.

VII. CHIPTALARNI ALMASHTIRISH VA QAYTARISH

7.1. Chiptalarni almashtirish va qaytarish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, tegishli Tashuvchi qoidalari, Provayder shartlari, Bankning amaldagi Tariflari va mazkur Ofertaga muvofiq amalga oshiriladi.

7.2. Chiptani almashtirish yoki qaytarish bo'yicha ariza Tenge Travel funksional imkoniyatlari, Bankning elektron pochtasi orqali yoki Bank tomonidan nazarda tutilgan va tegishli operatsiya uchun texnik jihatdan mavjud bo'lgan boshqa usulda yuborilishi mumkin.

7.3. Qaytarishni tasdiqlashdan oldin Mijozga quyidagilar haqida axborot taqdim etiladi:

- qaytarilayotgan Chipta qiymati;
- Tashuvchi va/yoki Provayderning qo'llaniladigan ushlab qolinadigan summalari, yig'imlari va boshqa to'lovlari;
- agar Bankning amaldagi Tariflarida nazarda tutilgan bo'lsa, qaytarishni rasmiylashtirishga ko'maklashish uchun Bank haqi;
- boshqa qo'llaniladigan to'lovlar;
- Mijozga qaytarilishi lozim bo'lgan pul mablag'larining yakuniy summasi.

7.4. Har bir Chiptani qaytarishni rasmiylashtirishga ko'maklashish uchun operatsiya amalga oshirilgan sanada amalda bo'lgan Bank Tariflariga, shuningdek Provayder va/yoki Tashuvchining qo'llaniladigan tariflari, yig'imlari va shartlariga muvofiq haq undirilishi mumkin. Tegishli haq, yig'imlar va ushlab qolinadigan summalar miqdori qaytarish operatsiyasi tasdiqlanishidan oldin Mijozga ma'lum qilinadi.

7.5. Mijozning qo'llaniladigan ushlab qolinadigan summalar, yig'imlar, komissiyalar va boshqa to'lovlar to'g'risidagi axborotni olgandan so'ng qaytarish operatsiyasini tasdiqlashi uning tegishli operatsiya shartlariga roziligini anglatadi.

7.6. Qaytarishni rasmiylashtirishga ko'maklashish uchun Bank haqi Mijozga qaytarilishi lozim bo'lgan

pul mablag'lari summasidan ushlab qolinishi yoki Mijoz oldindan xabardor qilingan va roziligi olingan holda boshqa mavjud usulda to'lanishi mumkin.

7.7. Qaytarishni rasmiylashtirishga ko'maklashish uchun haq O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, tegishli Tashuvchi qoidalari, Provayder shartlari yoki Bank Tariflarida uni undirishga yo'l qo'yilmagan hollarda, jumladan qaytarish Bank xatosi yoki tegishli xizmat qo'shimcha haqsiz ko'rsatilishi lozim bo'lgan boshqa holat sababli amalga oshirilganda undirilmaydi.

7.8. Tashuvchi va/yoki Provayderning ushlab qolinadigan summalari va yig'imlari, shuningdek qaytarishni rasmiylashtirishga ko'maklashish uchun Bank haqi mustaqil to'lov turlari hisoblanadi va tegishli tariflar, shartlar hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan bo'lsa, bir vaqtda qo'llanilishi mumkin.

7.9. Pul mablag'larini qaytarish Chipta uchun to'lov amalga oshirilgan to'lov vositasiga yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan va tegishli operatsiya uchun texnik jihatdan mavjud bo'lgan boshqa usulda amalga oshiriladi.

7.10. Chipta Aksiya doirasida sotib olingan taqdirda, uni almashtirish va qaytarish tartibi hamda xususiyatlari qo'shimcha ravishda tegishli Aksiya Qoidalari bilan belgilanadi.

7.11. Agar Chipta qiymatining bir qismi Aksiya doirasida Bank va/yoki Bank hamkori tomonidan chegirma yoki boshqa afzallik ko'rinishida moliyalashtirilgan bo'lsa, tegishli Aksiya Qoidalarida boshqacha nazarda tutilmagan taqdirda, qaytarishda ushbu summa Mijozga to'lanmaydi.

7.12. Chiptani qaytarishda Bank Aksiya doirasida chegirma yoki boshqa afzallik taqdim etilishi munosabati bilan yuzaga kelgan soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq Bank tomonidan amalda qilingan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tuzatish, hisobga olish yoki qaytarishga tegishli bo'lmagan qismdagi xarajatlarni qoplash summasini Mijozga qaytarilishi lozim bo'lgan pul mablag'laridan ushlab qolishga haqli. Bunday qoplash summasi qaytarish amalga oshirilishidan oldin Mijozga ma'lum qilinadi.

VIII. MARKETING AKSIYALARI VA MAXSUS TAKLIFLAR

8.1. Bank Tenge Travel doirasida marketing aksiyalari, sodiqlik dasturlarini o'tkazishga, Mijozlarga chegirmalar, keshbek, promokodlar va boshqa maxsus shartlarni taqdim etishga haqli.

8.2. Aksiya nomi, uni o'tkazish davri, ishtirokchilar doirasi, chegirma yoki boshqa afzallikni taqdim etish miqdori va tartibi, cheklovlar, to'lov usullari, almashtirish va qaytarish tartibi, shuningdek boshqa muhim shartlar tegishli Aksiyaning alohida Qoidalari bilan belgilanadi.

8.3. Tegishli Aksiya Qoidalari Bank tomonidan tasdiqlanadi va Bankning www.tengebank.uz rasmiy saytida joylashtiriladi. Bank Aksiya haqidagi axborotni va/yoki tegishli Qoidalarga havolani qo'shimcha ravishda Tenge24da hamda Bankning boshqa axborot kanallarida joylashtirishga haqli.

8.4. Tegishli Aksiya Qoidalari bunday Aksiya doirasida amalga oshiriladigan operatsiyalar qismida Bank va Mijoz uchun majburiy hisoblanadi.

8.5. Tegishli Aksiya doirasida chegirma, imtiyoz yoki boshqa afzallik qo'llanilgan holda operatsiyani amalga oshirib, Mijoz bunday Aksiya Qoidalari bilan tanishganini va ularga roziligini tasdiqlaydi.

8.6. Agar muayyan Aksiya shartlarida ishtirok etishni alohida tasdiqlash nazarda tutilgan bo'lsa, Mijozning Aksiyadagi ishtiroki tegishli harakat amalga oshirilganidan so'ng yuzaga keladi.

8.7. Agar Aksiya Qoidalarida chegirma yoki boshqa afzallikning avtomatik qo'llanilishi nazarda tutilgan bo'lsa, bunday afzallik Mijoz belgilangan shartlarni bajarganda alohida ariza berish zaruratisiz qo'llaniladi.

8.8. Aksiya doirasida sotib olingan Chiptani qaytarish tartibi, jumladan taqdim etilgan chegirma yoki boshqa afzallikni hisobga olish tartibi mazkur Oferta va tegishli Aksiya Qoidalari bilan belgilanadi.

8.9. Bank muayyan Aksiya Qoidalarida ishtirokchilar doirasi, operatsiyalar soni, chegirmalar miqdori, o'tkazish muddati, to'lov usullari va boshqa shartlar bo'yicha cheklovlarni belgilashga haqli.

8.10. Aksiyani tugatish, to'xtatib turish, uzaytirish yoki uning shartlarini o'zgartirish tegishli Aksiya Qoidalari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

8.11. Agar tegishli Aksiya Qoidalarida boshqacha nazarda tutilmagan bo'lsa, bitta Aksiyada ishtirok etish Mijozga Bankning boshqa Aksiyalarida avtomatik ravishda ishtirok etish huquqini bermaydi.

8.12. Muayyan Aksiya shartlari faqat bunday Aksiya Qoidalarida belgilangan davr va operatsiyalarga

nisbatan qo'llaniladi.

8.13. Mijozga reklama va marketing xabarlarini yuborish tegishli rozilik qonunchilikda talab etiladigan hollarda Mijozning shunday roziligi mavjud bo'lganda amalga oshiriladi. Reklama xabarlarini olishdan voz kechish Mijozning Tenge Travel servisidan foydalanish huquqini cheklamaydi.

IX. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

9.1. Bank quyidagilarga majbur:

- Mijozning Tenge Travel servisidan texnik imkoniyatlar doirasida foydalanishini ta'minlash;
- Mijozga Buyurtmani shakllantirish va rasmiylashtirish uchun zarur axborotni taqdim etish;
- Chiptani rasmiylashtirish uchun zarur ma'lumotlarning uzatilishini ta'minlash;
- Bank zimmasiga olgan majburiyatlar doirasida hisob-kitoblar amalga oshirilishini ta'minlash;
- rasmiylashtirilgan elektron Chiptaning Mijozga yetkazilishini ta'minlash;
- Mijozlarning murojaatlarini qabul qilish va ko'rib chiqish;
- O'zbekiston Respublikasining shaxsga doir ma'lumotlarni, bank sirini va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunchiligi talablariga rioya qilish.

9.2. Bank quyidagilarga haqli:

- Tenge Travel faoliyatini ta'minlash va tegishli xizmatlarni ko'rsatish uchun Provayder va boshqa uchinchi shaxslarni jalb etish;
- Tenge Travel servisining funksional imkoniyatlarini belgilash va o'zgartirish;
- rejali yoki avariya-texnik ishlar o'tkazilganda ayrim funksional imkoniyatlarni vaqtincha to'xtatib turish;
- firibgarlikning oldini olish maqsadida operatsiyalarni tekshirish;
- Universal shartnomaga muvofiq limitlarni belgilash va boshqa xavfsizlik choralarini qo'llash;
- Provayder, Tashuvchi va tegishli xizmatni ko'rsatishda bevosita ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga Chiptalarni qidirish, bron qilish, rasmiylashtirish, to'lash, sotib olish, olish, almashtirish va qaytarish bo'yicha operatsiyalarni shakllantirish, qayta ishlash va bajarish, hisob-kitoblarni amalga oshirish, shuningdek murojaatlar va nizoli operatsiyalarni ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va axborotni uzatish;
- Mijozdan operatsiyani amalga oshirish, qaytarishni ko'rib chiqish yoki murojaatni ko'rib chiqish uchun zarur ma'lumotlar va hujjatlarni so'rash;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Universal shartnoma va/yoki Bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda operatsiyani amalga oshirishni rad etish;
- mazkur Ofertada nazarda tutilgan tartibda Aksiyalar va maxsus takliflarni o'tkazish.

X. MIJOZNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

10.1. Mijoz quyidagilarga haqli:

- Chiptalar va ularni sotib olish shartlari haqida mavjud axborotni olish;
- Chipta muvaffaqiyatli rasmiylashtirilgandan so'ng elektron Chiptani olish;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Tashuvchi qoidalari, Provayder shartlari va mazkur Ofertada nazarda tutilgan hollarda hamda tartibda Chiptani almashtirish yoki qaytarishni boshlash;
- tegishli operatsiyani tasdiqlashdan oldin qo'llaniladigan tariflar, komissiyalar, yig'imlar, ushlab qolinadigan summalar va boshqa to'lovlar to'g'risida axborot olish;
- tegishli Qoidalar shartlariga mos kelganda Aksiyalarda ishtirok etish;
- Tenge Travel servisidan foydalanish masalalari bo'yicha Bankka murojaat qilish.

10.2. Mijoz quyidagilarga majbur:

- ishonchli, to'liq va dolzarb ma'lumotlarni taqdim etish;
- Buyurtmani tasdiqlashdan oldin uning parametrlarini tekshirish;
- Tenge24dan foydalanish vositalarining saqlanishi va maxfiyligini ta'minlash;

- bank kartasi va boshqa to'lov vositalaridan qonuniy asoslarda foydalanish;
- tegishli Tashuvchining qoidalari va shartlari bilan mustaqil ravishda tanishish;
- qaytarish operatsiyasini tasdiqlashdan oldin qo'llaniladigan yig'imlar, komissiyalar, qaytarishni rasmiylashtirishga ko'maklashish uchun haq va qaytarilishi lozim bo'lgan pul mablag'larining yakuniy summasi bilan tanishish;
- Aksiyada ishtirok etganda tegishli Aksiya Qoidalariga rioya qilish;
- Tenge Travel servisidan qonunga xilof yoki firibgarlik maqsadlarida foydalanmaslik.

XI. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLAR

11.1. Tenge Travel servisidan foydalanish va mazkur Ofertani Aksept qilish orqali Mijoz Bankka Mijoz va/yoki Yo'lovchining shaxsga doir ma'lumotlarini quyidagi maqsadlar uchun zarur hajmda yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, foydalanish, qayta ishlash va uzatishga rozilik beradi:
- Buyurtmani shakllantirish, qayta ishlash va bajarish;
- Chiptani qidirish, bron qilish, rasmiylashtirish, to'lash, olish, almashtirish va qaytarish;
- hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- Tenge Travel servisini taqdim etish va texnik qo'llab-quvvatlash;
- Mijoz va/yoki Yo'lovchini identifikatsiya qilish;
- murojaatlar, e'tirozlar va nizoli operatsiyalarni ko'rib chiqish;
- firibgarlik va ruxsatsiz operatsiyalarning oldini olish;
- Bankning shartnomaviy majburiyatlarini bajarish;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini bajarish.

11.2. Mijoz Bankka Mijoz va/yoki Yo'lovchining shaxsga doir ma'lumotlarini Provayderga, Tashuvchiga, banklarga, to'lov tashkilotlariga, to'lov tizimlari operatorlariga, protsessing markazlariga, servis va texnologik tashkilotlarga, shuningdek Bank va/yoki Provayder tomonidan jalb etiladigan hamda Tenge Travel servisini taqdim etish, Buyurtmani qayta ishlash va bajarish yoki tegishli operatsiyani amalga oshirishda bevosita ishtirok etuvchi boshqa uchinchi shaxslarga uzatishga rozilik beradi.

11.3. Shaxsga doir ma'lumotlarni ko'rsatilgan shaxslarga uzatish tegishli operatsiyani amalga oshirish uchun zarur hajmda, jumladan Chiptani shakllantirish, bron qilish, rasmiylashtirish, to'lash, sotib olish, olish, almashtirish va qaytarish, hisob-kitoblarni amalga oshirish, texnik va axborot qo'llab-quvvatlash, murojaatlar va nizoli operatsiyalarni ko'rib chiqish, shuningdek Buyurtmani bajarish bilan bevosita bog'liq boshqa harakatlarni amalga oshirish maqsadida yo'l qo'yiladi.

11.4. Mazkur Ofertani Aksept qilib, Mijoz Provayder, Tashuvchi va tegishli xizmatni ko'rsatish hamda operatsiyani amalga oshirishda bevosita ishtirok etuvchi boshqa uchinchi shaxslar tomonidan Mijoz va/yoki Yo'lovchining shaxsga doir ma'lumotlarini Buyurtmani bajarish va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini ijro etish uchun zarur hajmda va maqsadlarda olish, yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, foydalanish, qayta ishlash va zarur bo'lganda keyinchalik uzatishga ham rozilik beradi.

11.5. Bank alohida operatsiyalarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish uchun uchinchi shaxslarni jalb etishga hamda bunday shaxslarga Mijoz va/yoki Yo'lovchi haqidagi ma'lumotlar va shaxsga doir ma'lumotlarni tegishli operatsiyani bajarish yoki xizmatni ko'rsatish uchun obyektiv ravishda zarur hajmda uzatishga haqli. Agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqacha nazarda tutilmagan bo'lsa, bunday uzatish har bir alohida operatsiya bo'yicha Mijozning alohida roziligini olishni talab qilmaydi, chunki tegishli rozilik Mijoz tomonidan mazkur Ofertani Aksept qilish orqali beriladi.

11.6. Uchinchi shaxs foydasiga Chipta rasmiylashtirilganda Mijoz bunday Yo'lovchining shaxsga doir ma'lumotlarini Bankka taqdim etish, ularni qayta ishlash va tegishli operatsiyani bajarishda ishtirok etuvchi Provayder, Tashuvchi hamda boshqa uchinchi shaxslarga uzatish uchun qonuniy asoslar mavjudligini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida bunday roziliknи olish talab etiladigan hollarda Yo'lovchining roziligi mavjudligini tasdiqlaydi.

11.7. Bank, Provayder, Tashuvchi va boshqa uchinchi shaxslar tomonidan shaxsga doir ma'lumotlarni

qayta ishlash va uzatish faqat Tenge Travel servisini taqdim etish, Buyurtmani bajarish, tegishli xizmatlarni ko'rsatish, hisob-kitoblarni amalga oshirish va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini bajarish bilan bog'liq maqsadlarda amalga oshiriladi.

11.8. Mazkur Ofertani Aksept qilish Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini cheklanmagan doirada tarqatishga yoki ularni mazkur Oferta, Universal shartnoma, tegishli operatsiyani bajarish yoki boshqa qonuniy asos bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda foydalanishga roziligini anglatmaydi.

11.9. Reklama xabarlarini olish va shaxsga doir ma'lumotlardan reklama hamda marketing maqsadlarida foydalanishga rozilik, bunday rozilikning mavjudligi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida talab etiladigan hollarda, alohida rasmiylashtiriladi.

XII. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

12.1. Bank va Mijoz o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Ofertaga muvofiq javobgar bo'ladilar.

12.2. Bank o'z vakolatlari doirasida Tenge Travel faoliyatini ta'minlash, hisob-kitoblarni amalga oshirish, Bankda mavjud axborotni uzatish hamda mazkur Oferta bo'yicha bevosita o'z zimmasiga olgan boshqa majburiyatlarni bajarish qismida o'z harakatlari va majburiyatlari uchun javobgar bo'ladi.

12.3. Provayder o'zi bajaradigan funksiyalar doirasida Chiptani qidirish, bron qilish va rasmiylashtirish jarayonlarini lozim darajada texnologik ta'minlash, Buyurtmani qayta ishlash va uzatish, Chiptalarni bron qilish va rasmiylashtirish bo'yicha tegishli tizimlar bilan o'zaro hamkorlik qilish, Buyurtma holatlarini shakllantirish va uzatish, shuningdek o'zi bajaradigan funksiyalar doirasida almashtirish va qaytarish bo'yicha so'rovlarni qayta ishlash uchun javobgar bo'ladi.

12.4. Tashuvchi tashishni bevosita amalga oshirish, jadval va tashish shartlariga rioya qilish, safarning kechiktirilishi, ko'chirilishi yoki bekor qilinishi, Yo'lovchi va bagajga qo'yiladigan talablar, shuningdek qonunchilik va tashish qoidalariga ko'ra Tashuvchining javobgarligiga kiritilgan boshqa masalalar uchun javobgar bo'ladi.

12.5. Agar tegishli buzilish Bankning harakati yoki harakatsizligi natijasida yuzaga kelmagan bo'lsa, Bank Provayder va/yoki Tashuvchining harakatlari yoki harakatsizligi uchun javobgar bo'lmaydi.

12.6. Mijoz taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligi, to'lov vositasidan foydalanishning qonuniyligi hamda uchinchi shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlarini taqdim etish uchun qonuniy asoslar mavjudligi uchun javobgar bo'ladi.

12.7. Provayder va/yoki Tashuvchi tomonidan belgilangan tariflar, yig'imlar, komissiyalar va ushlab qolinadigan summalar miqdori uchun, tegishli axborot mazkur Ofertada nazarda tutilgan tartibda Mijozga ma'lum qilingan bo'lsa, Bank javobgar bo'lmaydi.

12.8. Bank Tenge Travel servisidan foydalanishning quyidagi sabablarga ko'ra imkonsiz bo'lishi uchun javobgar bo'lmaydi:

- Mijoz uskunasi yoki dasturiy ta'minotining nosozligi;
- Mijozda Internet tarmog'iga kirish imkoniyati mavjud emasligi;
- aloqa operatorlaridagi uzilishlar;
- Provayder va/yoki Tashuvchining harakatlari yoki harakatsizligi;
- Bankning oqilona nazoratidan tashqarida bo'lgan tashqi texnik uzilishlar;
- Bank tomonidan majburiyatlar bevosita buzilmagan bo'lishi sharti bilan yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari.

12.9. Mazkur Oferta shartlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida Mijozga berilgan huquqlarni cheklovchi tarzda talqin qilinishi yoki qo'llanilishi mumkin emas.

XIII. FIRIBGARLIKNING OLDINI OLISH

13.1. Bank firibgarlik va ruxsatsiz operatsiyalarning oldini olish uchun qonunchilik, Universal shartnoma va ichki nazorat tizimlarida nazarda tutilgan choralarni, jumladan qo'shimcha autentifikatsiya,

operatsiyalarni tekshirish, limitlarni belgilash va shubhali operatsiyalarni vaqtincha to'xtatib turishni qo'llashga haqli.

13.2. Mijoz o'ziga tegishli identifikatsiya vositalari va to'lov vositalaridan qonuniy asoslarda foydalanishi hamda parollar, bir martalik tasdiqlash kodlari va boshqa maxfiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga bermasligi shart.

13.3. Ruxsatsiz, shubhali yoki firibgarlik operatsiyasi alomatlari aniqlanganda Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Universal shartnomada yo'l qo'yilgan doirada tegishli operatsiyani to'xtatib turish yoki uni amalga oshirishni rad etishga haqli.

XIV. MUROJAATLAR VA NIZOLARNI HAL ETISH

14.1. Tenge Travel servisidan foydalanish bilan bog'liq masalalar bo'yicha Mijoz Bankning Kontakt-markaziga murojaat qilish yoki Bank tomonidan nazarda tutilgan boshqa mavjud usulda murojaat yuborishga haqli.

14.2. Murojaatni tezkor ko'rib chiqish uchun Mijozga Buyurtma va/yoki Chipta raqami, yo'nalish, operatsiya sanasi, aloqa ma'lumotlari va murojaat mazmunini ko'rsatish tavsiya etiladi.

14.3. Bank Mijozdan tegishli operatsiyani identifikatsiya qilish va murojaatni ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlar va hujjatlarni so'rashga haqli.

14.4. Bank Mijozlarning murojaatlarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqadi.

14.5. Mazkur Oferta bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan nizolar va kelishmovchiliklarni taraflar muzokaralar yo'li bilan hal etishga intiladilar.

14.6. Kelishuvga erishilmagan taqdirda nizo O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda hal etiladi.

XV. OFERTA SHARTLARINI O'ZGARTIRISH

15.1. Bank Universal shartnoma va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda mazkur Ofertaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga haqli.

15.2. Mazkur Ofertaning amaldagi tahriri Bankning www.tengebank.uz rasmiy saytida va/yoki Tenge24da joylashtiriladi.

15.3. Mazkur Ofertaga kiritilgan o'zgartirishlar, agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida to'g'ridan-to'g'ri boshqacha nazarda tutilmagan bo'lsa, Mijozning holatini yomonlashtiradigan qismda avval rasmiylashtirilgan Buyurtmalarga tatbiq etilmaydi.

15.4. Qonunchilik o'zgargan taqdirda mazkur Oferta qoidalari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining majburiy talablariga zid bo'lmagan qismda qo'llaniladi.

XVI. AMAL QILISH MUDDATI

16.1. Mazkur Oferta Bankning vakolatli organi qarori bilan belgilangan sanadan va/yoki belgilangan tartibda e'lon qilingan sanadan kuchga kiradi.

16.2. Muayyan Buyurtmaga nisbatan shartnoma Aksept qilingan paytdan ushbu Buyurtma bilan bog'liq majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

16.3. Tenge Travel servisidan foydalanishni tugatish yoki vaqtincha to'xtatish ilgari rasmiylashtirilgan Buyurtmalar, Chiptalar, hisob-kitoblar, qaytarishlar va murojaatlar bo'yicha taraflarning majburiyatlarini bekor qilmaydi.

XVII. BANKNING MANZILI VA REKVIZITLARI

«Tenge Bank» ATB
Manzil: Toshkent shahri, Shayxontohur tumani,
Islom Karimov ko'chasi, 1, 1-B uy.
MFO: 01176, STIR: 207297973